URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

ELLAMONOV SUXROBJON NU'MON OG'LI

2-TIP QANDLI DIABET BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING AVJ OLISHINING KLINIK-GENETIK OMILLARI

14.00.05 – Ichki kasalliklar

TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

SAMARQAND–2026

UO'K: 616.12-008.331:616.379-008.64:575.113

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ellamonov Suxrobjon Nu'monovich
2-tip qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda arterial gipertenziyaning avj olishining klinik-genetik omillari 3

Элламонов Сухробжон Нуъмонович
Клинико-генетические факторы прогрессирования артериальной гипертензии у больных с сахарным диабетом 2 типа 26

Ellamonov Sukhrobdjon Numonovich
Clinical and genetic factors of the progression of arterial hypertension in patients with type 2 diabetes mellitus 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....55

URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

ELLAMONOV SUXROBJON NU'MON OG'LI

2-TIP QANDLI DIABET BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING AVJ OLISHINING KLINIK-GENETIK OMILLARI

14.00.05 – Ichki kasalliklar

TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

SAMARQAND–2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Tib2403 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdti.uz) hamda “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tashkenbayeva Eleonora Negmatovna** Tibbiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Jabbarov Ozimbay Otaxanovich** Tibbiyot fanlari doktori, professor
	Kenjayev Majid Latipovich Tibbiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro Davlat tibbiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.20.01 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «___»_____ soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Xorazm viloyati, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko‘chasi, 28. Tel./faks: (+99862) 224-84-84), E-mail: ttaurgfil@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 220100, Xorazm viloyati, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko‘chasi, 28. Tel./faks: (+99862) 224-84-84), E-mail: ttaurgfil@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «____»_____tarqatildi.
(2026 yil «__»_____dagi ____raqamli reestr bayonnomasi).

R.Y.Ruzibaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

Z.F.Djumaniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

R.B.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda aholining o‘limi va nogironligi strukturasida yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) yetakchi o‘rinni egallaydi. JSST 2022-yil statistikasi shuni ko'rsatadiki, yuqumli bo'lmagan kasalliklar oqibatida 19,8 milliondan ortiq inson hayotini yo'qotgan bo'lib, bu umumiy o'lim holatlarining deyarli uchdan bir qismini (32% atrofida) tashkil etgan. Yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishida asosiy o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xavf omillari sifatida arterial gipertenziya (AG) va 2-tip qandli diabet (QD2) saqlanib qolmoqda. Ushbu holatlar mustaqil va bir-birini o‘zaro og‘irlashtiruvchi patogenetik omillar sifatida qaraladi hamda ishemiya kasalligi, insult va surunkali yurak yetishmovchiligi rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi.[1]

JSSTning dolzarb hisob-kitoblariga ko‘ra, 30-79 yoshdagi qariyb 1,28 milliard kattalar arterial gipertenziyadan aziyat chekadi, bemorlarning 50 foizidan kamrog‘i qon bosimining maqsadli darajasiga erishadi, bu esa kasallikni nazorat qilishning yetarli darajada samarali emasligidan dalolat beradi. Iqtisodiy jihatdan 2-toifa qandli diabet epidemiyasining sekin-asta kengayishi davom etmoqda. Arterial gipertenziya bilan qandli diabet qo'shilib kelganda klinik manzarani og'irlashtiruvchi omillar — yurak-qon tomir asoratlari xavfining ikki-uch baravar oshishi, miokardning qayta modellanish jarayonining jadallashishi, aterosklerozning kuchayishi va uzoq muddatli bashoratning yomonlashishi — yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kundagi xorij ilmiy ishlar qandli diabetli bemoralarda AG kelib chiqishida endotelial disfunktsiya, RAAT faollashuvi va uzluksiz past intensivlikli yallig'lanishning markaziy mexanistik rol o'ynashini isbotlaydi. Yirik Yevropa va Shimoliy Amerika uzoq mudatli kuzatuv tadqiqotlarida AGTR1 (A1166C) genining C-allelini va AGT (M235T) genining T-allelini tashish chap qorincha gipertrofiyasi xavfining oshishi, yurak diastolik funksiyasining buzilishi, azot oksidi (NO) biosinguvchanligining pasayishi, endotelin-1 darajasining oshishi va aterogenezning tez rivojlanishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Ushbu toifadagi bemorlarda kardiometabolik xavfning qo‘shimcha salbiy omili chap qorincha remodellanishining tezlashishi va uning massasining ortishi bilan bog‘liq bo‘lgan gipergomotsisteinemiyadir, bu esa kasallik rivojlanishining ko‘p omilli xususiyatini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida AG va QD2 kombinatsiyasi muammosi alohida tibbiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining rasmiy statistikasida so‘nggi yillarda arterial gipertenziya (AG) hamda 2-toifa qandli diabet (QD2) bilan kasallanishning uzluksiz ko‘tarilishi qayd etilgan: shu kasalliklar guruhida davolanayotgan bemorlarning 25 foizdan ortig‘i ayni paytda ikkala patologiyaga chalingan bo‘lib, qo‘shma morfologiya klinik davolashni sezilarli murakkablashtirmoqda. Aynan shu iqtisodiy-epidemiologik fon zaminida biz tomonimizdan o‘zbek populyatsiyasida ilk bor AGTR1 (A1166C) va AGT (M235T) gen polimorfizmlarining genotipik tadqiqoti amalga oshirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, “xavfli” allellarning tashuvchiligi og‘ir endotelial disfunktsiya bilan ishonchli bog‘liq bo‘lib, shu bilan birga yurak bo‘shlig‘i devorlarining noiqbolli strukturaviy qayta qurilishi bilan baravar o‘tadi. Olingan

[1] https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-%28cvds%29?utm_source2025

ma’lumotlar kardiometabolik xavf yuqori bo‘lgan bemorlarni erta aniqlash va genetik va biokimyoviy markerlarni hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan profilaktika va davolash yondashuvlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo’yicha “mamlakatimizda aholiga ko’rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabobligini oshirish, shunigdek, kasalliklarni erta tashxislash va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy qilish, patronaj xizmatini yaratish, sog’lom turmush tarzini qo’llab- quvvatlash va kasalliklarni oldini olish va samarali tashxislash ...”[2] kabi zamonaviy hamda individual yondashuvga asoslangan tibbiy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan strategik vazifalar tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni, 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son Farmoni, 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5199-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Demak, QD2 bilan og‘rigan bemorlarda arterial gipertenziya paydo bo‘lishining klinik-genetik omillarini kompleks tahlil qilish — jumladan, genetik polimorfizmlar, endotelial disfunktsiya hamda yurak strukturaviy remodellanishining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish — bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Tadqiqot natijalari yurak-qon tomir asoratlarini erta prognozlash, xavfni tabaqalashtirish va kardiometabolik kasalliklarni oldini olish va davolashning shaxsiylashtirilgan strategiyalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin, bu esa ushbu dissertatsiya ishining yuqori klinik va ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi[3]. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlariga - VI yo‘nalish: “Tibbiyot va farmakologiya” bo‘yicha to‘liq mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qandli diabet 2- tipi (QD2) bilan og‘rigan bemorlarda arterial gipertenziyaning (AG) rivojlanishi muammosi yetakchi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlarida keng yoritilgan va zamonaviy tibbiyotda eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu komorbid patologiyaning yuqori klinik va ijtimoiy ahamiyati P. Nilsson (2004-2018), G. Mancia (2007-2023), B. Williams (2015-2023), R. DeFronzo (1988-2020), E. Ferrannini (1991-2019), J. Brownlee (2001-2016) tomonidan olib borilgan yirik epidemiologik va klinik tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan bo‘lib, ularda AG va QD2 kombinatsiyasi bo‘lgan bemorlarda yurak-qon tomir va buyrak kasalliklarining sezilarli darajada oshishi ko‘rsatilgan.

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”

[3] 2012-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari- VI "Tibbiyot va farmakologiya."

Uzoq xorijdagi tadqiqotlarda aniqlanishicha, QD2 bilan og‘rigan bemorlarda AG kechishi erta boshlanishi, tez rivojlanishi va gipertenziyaning rezistent shakllarining yuqori chastotasi bilan tavsiflanadi. Simpatoadrenal tizim va renin-angiotenzin-aldosteron tizimining faollashuvida insulinga rezistentlik, giperinsulinemiya va surunkali giperglikemiyaning asosiy o‘rni G. Reaven (2012), R. DeFronzo (2018), E. Ferranni (2020) tomondan olib borilgan klassik va zamonaviy ilmiy ishlarida asoslangan. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda qon tomir devori va miokard remodellanishida endotelial disfunksiya, oksidativ stress va surunkali yallig‘lanishning ahamiyati H. Cai (2000-2017), D. Harrison (1999-2016), J. Deanfield (2005-2019) tadqiqotlarida aks ettirilgan. Chet el ilmiy adabiyotlarida QD2 fonida AG shakllanishining genetik omillarini o‘rganish alohida mavqe kasb etib keladi. J. Jeunemaitre (1992–2014), F. Soubrier (1997–2012), P. Corvol (1998–2016), H. Schunkert (2000–2018) hamda M. Tomaszewski (2007–2021) tomonidan olib borilgan ko‘lamli tadqiqotlarda renin-angiotenzin-aldosteron tizimiga oid genlarning — ACE I/D, AGT M235T, AGTR1 A1166C — polimorfik variantlari arterial qon bosimi ko‘rsatkichlari, gipertenziya rivojlanish sur’ati va yurak-qon tomir asoratlari xavfi bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Boshqa tadqiqotchilar — D. Hingorani (2014), P. Casas (2016), A. Zanchi (2015) — endotelial regulyatsiya geni (NOS3) va folat sikli geni (MTHFR) ning endotelial disfunktsiya, chap qorinchaning gipertrofiyalanishi hamda diabetik nefropatiya kelib chiqishidagi ahamiyatini tajribaviy dalillar bilan tasdiqlaganlar. Shunga qaramay, ko‘plab mualliflar aniqlangan genetik assotsiatsiyalar populyatsiyaga va etnik guruhlarga ko‘ra sezilarli farq qilishini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

MDH mamlakatlarida 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda AGning klinik-genetik jihatlari Ye.I. Chazov (2012), I.Ye. Chazova (2023), J.D. Kobalov (2022), R.G. Oganov (2020), S.A. Boysov (2021), V.I. Podzolkov (2019), A.S. Galyavich (2020) ishlarida o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 2-tip QD bilan og‘rigan bemorlarda ACE, AGT va AGTR1 genlarining "salbiy" allellarini tashish arterial gipertenziyaning og‘irroq kechishi, chap qorincha miokardining yaqqol remodellanishi va arterial bosimning sutkalik profilining buzilishi bilan bog‘liq. O.M.Drapkina (2022), A.V.Susekov (2021), M.G.Glezer (2018) tadqiqotlarida qandli diabetda AG rivojlanishida dislipidemiya, tizimli yallig‘lanish va metabolik buzilishlarning roli yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasida AG va QD2 ning birga kelishi masalalari R.A. Kurbanov (2021), Sh.I. Karimov (2019), U.X. Xalilov (2022), N.A. Madaminov (2023), A.A. Abdullayev (2020), G.A. Xamidullayev (2022) ishlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, diabet bilan og‘rigan bemorlarda yurak-qon tomir tizimi, miokardning tarkibiy o‘zgarishlari va buyrak holatini klinik-funksional baholashga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotlarda nazorat qilinmaydigan AG va nishon a’zolarning erta shikastlanishining yuqori tarqalganligi ta’kidlanadi, ammo o‘zbek populyatsiyasi sharoitida QD2 bilan og‘rigan bemorlarda AG rivojlanishining genetik omillari yetarlicha o‘rganilmagan va kam sonli nashrlarda taqdim etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy, rus va o‘zbek tadqiqotchilarining sezilarli hissalariga qaramay, 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda arterial gipertenziya rivojlanishining klinik, metabolik va genetik omillarini bir vaqtning

o‘zida baholashga qaratilgan keng qamrovli populyatsiyaga xos tadqiqotlar tanqisligi saqlanib qolmoqda. Bu esa mazkur dissertatsiya tadqiqotining ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №PZ 20170927280 "Stenokardiyaning nostabil variantlarini molekulyar-genetik prognozlash usullarini ishlab chiqish va ularni davolashga individual yondashuv" amaliy dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda klinik-metabolik va molekulyar-genetik ko‘rsatkichlar asosida arterial gipertenziya progressiyasi omillarini tashxislashni optimallashtirish hamda yurak-qon tomir xavflarining personallashtirilgan profilaktikasini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

2-tip qandli diabet va arterial gipertenziya bilan og‘rigan bemorlarda qon tomirlarining strukturaviy va funksional o‘zgarishlarini o‘rganish hamda aterosklerotik zararlanish markerlarining erta tashxisi va profilaktikadagi ahamiyatini ilmiy asoslash;

endotelial disfunksiya va yurakning chap bo‘limlaridagi struktura o‘zgarishlari o‘rtasidagi patogenetik bog‘liqlikni baholash;

arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabet komorbid holatida gomosistein darajasi va uning almashinuvida ishtirok etuvchi fermentlarning genetik polimorfizmlarini aniqlash va baholash;

AGTR1 (A1166C) va AGT (M235T) genlaridagi polimorfizmlar ma'lumotlarini kliniko-funksional ko'rsatkichlar bilan integratsiyalab, arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabetli bemorlarda kardiometabolik xavfni diagnostika qilish algoritmini yaratish.

Tadqiqot obyekti sifatida 2-tip qandli diabet bilan bir vaqtda kechuvchi AG (AG va QD2) tashxisi qo'yilgan bemorlarning klinik, biokimyoviy hamda genetik parametrlari o'rganildi. Mazkur ma'lumotlar tahlili orqali kardiometabolik xavf darajasi va yurakning strukturaviy, funksional holati baholandi. Bemorlarni saralash hamda ularning ko'rsatkichlarini qayd etish ishlari Samarqand shahar tibbiyot birlashmasining kardiologiya, endokrinologiya va reabilitatsiya bo'limlarida belgilangan rejaga muvofiq olib borildi. Tadqiqotga jami 149 nafar bemor jalb etildi: 69 nafar bemorda arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabet birgalikda aniqlangan; 80 nafar bemorda izolyatsiyalangan arterial gipertenziya kuzatildi. Nazorat guruhi sifatida 80 nafar sog‘lom shaxs tanlab olindi, ular yoshi va jinsi bo‘yicha asosiy guruh bilan moslashtirilgan.

Tadqiqot predmeti - AG va QD2 bilan og‘rigan bemorlarda chap qorinchaning strukturaviy va funksional holati, endotelial funksiya va metabolik buzilishlar, shuningdek AGTR1 (A1166C) va AGT (M235T) genlari polimorfizmlarini aniqlash maqsadida klinik, labarator, biokimyoviy hamda molekulyar-genetik tadqiqotlar o’tkazildi, buning uchun bemorlardan vena qoni va qon zardobi (plazmasi) olindi.

Tadqiqot materiallari va usullari: bemorlarni klinik tekshirish va anamnez to'plash, biokimyoviy qon tahlili, PZR genotiplash, chap qorincha tuzilishi va funksiyasini baholash uchun exokardiografiya, koronar arteriyalarining strukturaviy va funksional holatini baholash maqsadida koronarografiya tekshiruvi, statistik ma'lumotlarni Excel va SPSS dasturlari yordamida tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: O'zbekiston ilmiy- amaliyotida ilk bor AG va 2-tip QD bilan og'rigan bemorlarda AGTR1 A1166C va AGT M235T gen polimorfizmlari, endotelial disfunktsiya ko'rsatkichlari (ET-1, NO), metabolik markerlar (gomotsistein, HbA1c, HOMA-IR) hamda koronar ateroskleroz o'rtasidagi kompleks bog'liqlik aniqlanib, integral kardiometabolik xavf modeli yaratilgan;

AGTR1 A1166C genining C-allelini tashuvchi bemorlarda ET-1 miqdorining ortishi, NO darajasining pasayishi va chap qorincha gipertrofiyasining shakllanishi o'rtasidagi korrelyativ bog'liqlik isbotlangan; AGT M235T genining T-alleli esa gomotsistein dismetabolizmi, ET-1 ortishi va metabolik disadaptatsiya jarayonlari bilan statistik jihatdan ishonchli tasdiqlangan;

AGTR1 va AGT genlari "xavfli" allellar kombinatsiyasini (C va T) tashuvchi bemorlarda endotelial disfunktsiya og'irligi, chap qorincha massasi o'sishi va "non-dipper" qon bosimi profili o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritilib, yuqori kardiometabolik xavfga ega bo'lgan bemorlarni genetik model asosida xavf guruhlariga taqsimlash mumkinligi ko'rsatilgan;

Tadqiqot natijasida yaratilgan genetik-endotelial diagnostika algoritmi yordamida shaxsiy kardiometabolik xavfni erta aniqlash, miokardning remodellanishini dastlabki bosqichda baholash, endotelial disfunktsiyani oldindan prognozlash hamda aterosklerotik asoratlarning oldini olish bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari: Olib borilgan tadqiqot natijasida AGTR1 (A1166C) va AGT (M235T) polimorfizmlarini arterial gipertenziya bilan og'rigan, ayniqsa 2-tur qandli diabet hamrohligida kechayotgan bemorlarda aniqlash orqali endotelial disfunktsiya, chap qorinchaning strukturaviy remodellanishi va aterosklerotik asoratlar ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni saralab olish mumkinligi ko'rsatildi. Genotiplash usulini klinik amaliyotga keng joriy etish salbiy oqibatlarni dastlabki bosqichda bashorat qilish hamda profilaktik choralar ni har bir bemor uchun individual tarzda belgilash imkonini berishi isbotlangan;

"Xavfli allellar kombinatsiyasini tashuvchi" bemorlarda NO, ET-1, CHQ devorining og'irligi va qalinligi darajasini muntazam ravishda baholash endotelial disfunksiya va miokardning strukturaviy remodellanish darajasini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini berishi aniqlandi. Bu yurak-qon tomir asoratlarini erta aniqlashning prognostik aniqligini oshiradigan patogenezining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadli kuzatuv va terapiyani tuzatish uchun ilmiy asos yaratishi aniqlandi;

Xavfni kompleks baholashga gomotsistein, qondagi glyukoza va lipid profili darajasini kiritish AG va QD2 bilan og'rigan bemorlarda, ayniqsa AGTR1 va AGT "xavfli" allellari tashuvchilarida erta metabolik buzilishlarni aniqlash imkonini berishi isbotlangan. Gipergomotsisteinemiya va endotelial disfunktsiyaning qo'shma

namoyon bo'lishi chap qorinchaning patologik remodellanishini kuchaytirishi aniqlangan bo'lib, bu kuzatuv mazkur ko'rsatkichlarni individual profilaktika va terapevtik dasturlarni ishlab chiqishda ishonchli prognostik vositaga aylantiradi;

Molekulyar-genetik tahlil natijalaridan kelib chiqib, bemorlarni uch xavf guruhiga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi: yuqori xavf guruhini AGTR1 CC genotipi AGT TT bilan birgalikda tashkil qilgan bemorlar, o‘rtacha xavf guruhini — AGTR1 AC yoki CC kombinatsiyasi AGT MM yoki MT bilan, past xavf guruhini esa — AGTR1 AA va AGT MM genotiplariga ega shaxslar anglatdi. Bunday tasnif antigipertenziv davo rejalarini individual tanlash, endotelial yetishmovchilikni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar va yurak bo‘shlig‘i devorlarining o‘zgarishlarini dinamik kuzatish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur yondashuvdan foydalanish kardiometabolik xavfni pasaytirish, mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish va klinik resurslarni maqsadli yo'naltirish imkonini taqdim etdi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kompleks yondashuv va zamonaviy metodlardan foydalanish, arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarni klinik, biokimyoviy, instrumental va molekulyar-genetik baholash, AGTR1 (A1166C) va AGT (M235T) polimorfizmlari, endotelial disfunksiya, miokard strukturaviy va funksional o‘zgarishlari hamda koronar ateroskleroz og‘irligi o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, natijalarni xalqaro manbalar bilan solishtirish hamda chiqarilgan xulosa va olingan natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda AGTR1 (A1166C) va AGT (M235T) genlari polimorfizmlarining endotelial disfunksiya, metabolik buzilishlar va koronar ateroskleroz og‘irligi bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, yuqori kardiometabolik xavfni shakllantiruvchi genetik omillarni asoslash hamda genetik, biokimyoviy va exokardiografik ko‘rsatkichlarni birlashtirgan integral xavf stratifikatsiyasi modelini ishlab chiqish orqali kasallik patogenezi haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot klinik amaliyot uchun ahamiyatli natijalar bermoqda: arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda kardiometabolik xavfni har bir shaxs uchun alohida baholash imkonini ochib beradi. AGTR1 (A1166C) va AGT (M235T) polimorfizmlari endotelial funksiya ko‘rsatkichlari hamda metabolik profil bilan qo‘shma tahlil qilinganda shakllangan xavfni tabaqalashtirish algoritmi yurak-qon tomir asoratlari ehtimoli yuqori bo‘lgan bemorlarni dastlabki bosqichda aniqlashga xizmat qiladi. Kompleks tekshiruv tarkibida genetik test natijalaridan foydalanish individual profilaktik tadbirlarni asoslash, bemorga xos genetik xususiyatlarni hisobga olgan holda davo rejalarini tuzish va qon bosimi, metabolik buzilishlar hamda aterosklerotik jarayon ustidan nazorat samaradorligini oshirish uchun ilmiy poydevor yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.

Arterial gipertenziya va 2-tip diabet bilan og’rigan bemorlarda AGTR1 (A1166C) va AGT (M235T) gen polimorfizmlarining endotelial disfunksiya,

metabolik kasalliklar va koronar aterosklerozning og’irligi bilan bog'liqligi klinik-laborator va molekulyar-getetik tekshiruvlar asosida ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Birinchi ilmiy yangilik: O‘zbekistonda AG va 2-tip QD bilan og‘rigan bemorlarda AGTR1 A1166C va AGT M235T gen polimorfizmlari, endotelial disfunktsiya (ET-1, NO), metabolik markerlar (gomotsistein, HbA1c, HOMA-IR) va koronar ateroskleroz o‘rtasidagi kompleks bog‘liqlik aniqlanib, integral kardiometabolik xavf modeli ishlab chiqilganligi asosida olingan natijalar Samaraqand viloyati Oqdaryo tumani tibbiyot birlashmasi (28.01.2025 yil № 6 buyruq) va Samaraqand viloyati Ishtixon tumani tibbiyot birlashmasi (31.01.2025 yil №615-7-95-TB/2025-son buyruq) amaliyotiga tadbiq etilgan. Arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabet bilan birga kelgan bemorlarda chap qorincha massasining indeksi (CHQMI) izolyatsiyalangan AG bilan og’riganlarga nisbatan ishonchli darajada yuqori (125 ± 15 g/m2 ga qarshi 102 ± 12 g/m2, $p < 0,01$), ekani, shuningdek, diastolik funksiyaning yanada kuchiliroq buzilishi (E/A = 0,85 ± 0,12 ga nisbatan 1,05 ± 0,10, $p < 0,05$) kuzatilgani aniqlangan. NO darajasining pasayishi va ET-1 ning oshishi chuqur endotelial disfunksiya mavjudligini tasdiqlaydi. Ijtimoiy samaradorlik: olingan ma’lumotlar AG va QD2 kombinatsiyasiga ega bemorlarni yuqori kardiometabolik xavf guruhi sifatida ajratish va yurak-qon tomir asoratlarining erta profilaktikasini o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa surunkali yurak yetishmovchiligi va ishemik yurak kasalligi sababli gospitalizatsiya holatlarini kamaytiradi, hayot sifatini yaxshilaydi va bemorlarning mehnat faoliyati davomiyligini 3–5 yilga oshiradi. Iqtisodiy samaradorligi: endotelial disfunksiya va miokard remodellanishini erta aniqlash dekompensatsiyalangan yurak yetishmovchiligi hamda aterosklerotik asoratlarni davolash xarajatlarini kamaytiradi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, NO, ET-1 va exokardiyografik (EKoKG) skriningni kompleks joriy etish gospitalizatsiya va dori vositalariga sarflanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni 12–15 % ga kamaytiradi. Har 1000 bemor hisobida yillik potentsial tejamkorlik 400–700 million so‘mni tashkil etadi. Xulosa: AG va QD2 bilan og‘rigan bemorlarda yurakning strukturaviy va funksional xususiyatlarini aniqlash, kardiometabolik xavfni erta diagnostika qilish dasturlarini joriy etish zarurligini asoslaydi;

Ikkinchi ilmiy yangilik: AGTR1 A1166C C-allelini tashuvchi bemorlarda ET-1 ortishi, NO kamayishi va chap qorincha gipertrofiyasi bilan korrelyatsiya isbotlangan, AGT M235T T-alleli esa gomotsistein dismetabolizmi, ET-1 ortishi va metabolik disadaptatsiya bilan bog‘liqligi statistik asosda tasdiqlanganligi asosida olingan natijalar Samaraqand viloyati Oqdaryo tumani tibbiyot birlashmasi (28.01.2025 yil № 6 buyruq) va Samaraqand viloyati Ishtixon tumani tibbiyot birlashmasi (31.01.2025 yil №615-7-95-TB/2025-son buyruq) amaliyotiga tadbiq etilgan Birinchi marotaba AGTR1 genining C-alleli va AGT genining T-alleli tashuvchilik holati chap qorincha massasi ortishi, giper-gomosisteinemiya va aniq endotelial disfunksiya bilan ishonchli tarzda bog‘liqligi aniqlandi. AGTR1 CC va AGT TT genotiplarining kombinatsiyasi ET-1 darajasining eng yuqori ko'tarilishi ($r = +0,34$, $p = 0,002$), NO darajasining sekin pasayishi ($r = −0,28$, $p = 0,01$) hamda koronar arteriyalarning ko'p tomirli zararlanishi bilan bir vaqtda kuzatildi. Mazkur genotiplar yuqori kardiometabolik xavfning genetik prediktorlari deb tasniflanadi.

Ijtimoiy samaradorligi: ushbu yondashuv arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabetning og'ir kechishini bashorat qiluvchi genetik markerlarni aniqlash orqali shaxsga yo'naltirilgan maslahat berish hamda irsiy moyillikka ega oilalarda genetik skriningni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Natijada erta infarkt va insultlarning oldini olish, nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarini pasaytirish orqali mehnatga layoqatli aholining salomatligini saqlashga erishiladi. Iqtisodiy samaradorligi: molekulyar-genetik testlarni kardiologik va endokrinologik dispanser amaliyotiga kiritish bemorlarni xavf darajasiga ko'ra stratifikatsiya qilish, shu bilan birga RAAS ingibitorlari, statinlar va antiagregantlar kabi qimmat dorivor vositalardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Buning natijasida davolash xarajatlari 10–20 % gacha qisqarishi kutilmoqda — har 1 000 bemor uchun yillik tejamkorlik 500–900 million so'mni tashkil etadi. Xulosa: AGTR1 va AGT gen polimorfizmlarini aniqlash yurak-qon tomir kasalliklarining shaxsga yo‘naltirilgan profilaktikasi uchun iqtisodiy jihatdan samarali vosita bo‘lib, aholi o‘lim darajasini kamaytirishga qaratilgan milliy dasturlarga integratsiya etilishi mumkin;

Uchinchi ilmiy yangilik: AGTR1-AGT (C va T) kombinatsiyasi bo‘lgan bemorlarda endotelial disfunksiya, chap qorincha massasi va “non-dipper” qon bosimi profili o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, yuqori kardiometabolik xavf genetik modeli ishlab chiqilganligi asosida olingan natijalar Samaraqand viloyati Oqdaryo tumani tibbiyot birlashmasi (28.01.2025 yil № 6 buyruq) va Samaraqand viloyati Ishtixon tumani tibbiyot birlashmasi (31.01.2025 yil №615-7-95-TB/2025-son buyruq) amaliyotiga tadbiq etilgan. ET-1 darajasi chap qorincha massasi bilan ijobiy ($r = +0{,}34$, $p = 0{,}002$), NO darajasi esa devor qalinligi bilan salbiy ($r = -0{,}29$, $p = 0{,}01$) korrelyatsiyada ekanligi ko‘rsatildi. Gipergomotsisteinemiya (>15 mkmol/l) holatining chap qorincha massasining ortishi va koronar arteriyalarning ko'p tomirli zararlanishi bilan ishonchli bog'liqligi aniqlangan. Ijtimoiy samaradorlik: tadqiqot natijalari ET-1, NO va gomotsistein darajalarini miokard hamda qon tomir remodellanishining laborator biomarkerlari sifatida qo'llash imkonini ochib beradi. Bunday yondashuv kardiologik va endokrinologik klinikalarda profilaktik tekshiruvlar doirasini kengaytirish, erta diagnostika sifatini oshirish hamda infarkt va insult oqibatidagi o'lim holatlarini 8–10 % gacha pasaytirish uchun amaliy asos yaratadi. Iqtisodiy samaradorlik: ET-1, NO va gomotsisteinni o'z ichiga olgan standart biokimyoviy panelni qimmatbaho vizualizatsion usullar o'rniga erta diagnostika bosqichida qo'llash har bir bemor uchun tekshiruv xarajatlarini 20–25 % gacha qisqartiradi. Natijada sog'liqni saqlash tizimida asoratlar va takroriy gospitalizatsiyalarning kamayishi hisobiga har 1000 bemor uchun yillik 1 milliard so'mgacha tejamkorlik yuzaga keladi. Xulosa: endotelial disfunksiyaning biokimyoviy markerlaridan foydalanish xavfni stratifikatsiya qilish aniqligini oshiradi, shu bilan birga yurak-qon tomir asoratlarining profilaktikasini iqtisodiy jihatdan samaraliroq va klinik jihatdan qulayroq tarzda tashkil etish imkonini beradi;

To‘rtinchi ilmiy yangilik: Tadqiqot doirasida yaratilgan “Genetik-endotelial diagnostika algoritmi” shaxsiy kardiometabolik xavfni va miokard remodellyatsiyasini erta aniqlash, endotelial disfunksiyani prognozlash, aterosklerotik asoratlarni oldini olishga erishilganligi asosida olingan natijalar Samaraqand viloyati Oqdaryo tumani tibbiyot birlashmasi (28.01.2025 yil № 6

buyruq) va Samaraqand viloyati Ishtixon tumani tibbiyot birlashmasi (31.01.2025 yil №615-7-95-TB/2025-son buyruq) amaliyotiga tadbiq etilgan. AGTR1 va AGT genlari genotiplari, NO, ET-1, gomotsistein darajalari va miokardning strukturaviy ko‘rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish asosida bemorlarni past, o‘rta va yuqori kardiometabolik xavf guruhlariga ajratish algoritmi ishlab chiqilgan. Ushbu algoritm yordamida remodellanish darajasini va aterosklerotik asoratlarni oldindan bashorat qilish hamda shaxsga yo'naltirilgan davolash choralarini belgilash imkoniyati yaratilgan. Ijtimoiy samaradorlik: algoritmni klinik amaliyotda qo‘llash yuqori xavfdagi bemorlarni erta aniqlash, profilaktik tadbirlarni individuallashtirish, hayot davomiyligini uzaytirish va nogironlik hamda o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirish imkonini yaratadi. Iqtisodiy samaradorlik: algoritmni dispanser kuzatuv hamda skrining dasturlariga integratsiya qilish orqali kech diagnostika qilingan asoratlar ulushi 20–25 % gacha, gospitalizatsiya holatlari esa 15–18 % gacha qisqardi. Shuning natijasida sog'liqni saqlash tizimida har 1000 bemor hisobida yillik 600–900 million so'm miqdorida iqtisodiy tejamkorlik yaratildi. Xulosa: ishlab chiqilgan algoritm kliniko-genetik asosdagi shaxsga yo‘naltirilgan tibbiyot vositasi bo‘lib, u profilaktika samaradorligini oshirish va sog‘liqni saqlash xarajatlarini oqilona rejalashtirish imkonini beradi hamda yurak-qon tomir asoratlarini erta aniqlash va oldini olish orqali sog‘lom umr davomiyligini uzaytiradi;

Dissertatsiya tadqiqoti davomida olingan ilmiy natijalar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashning 2025-yil 12 – dekabrdagi 30 - sonli qaror xulosasi asosida sog’liqni saqlash amaliyotiga joriy etish uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta (jumladan, OAK tomonidan tasdiqlangan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola chop etilgan, shu jumladan 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy jurnalda) chop etilgan, 1 ta elektronhisoblash dasturi №DGU 26579 yartilgan va 2 ta uslubiy tavsiyanomalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi adabiyotlar ro’yxatini hisobga olmaganda 117 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabetning keng tarqalganligi hamda ushbu kasalliklarning og‘ir kechishi ularning birgalikda uchrashini (komorbid holatini) erta o‘lim, nogironlik va aholi hayot sifati pasayishining yetakchi sabablari qatoriga kiritilgan. Shuningdek, bu holat yurak-qon tomir asoratlarining shakllanishida muhim bo‘g‘in sifatida ta’riflangan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili endotelial disfunktsiya, renin–angiotenzin–aldosteron

tizimi (RAAS) faollashuvi, yallig‘lanish omillari hamda genetik omillarning gipertenziya va 2-tip qandli diabet patogenezidagi rolini tasdiqlagan.

Birinchi bob – “2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda arterial gipertenziya rivojlanishining klinik-genetik jihatlari” – tahliliy-obzor xarakterga ega bo‘lib, arterial gipertenziya va 2-tip qandli diabetning birgalikdagi kechish muammosining zamonaviy holatini har tomonlama yoritilgan. Unda butun dunyo va O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha AG va QD2 komorbiditetining tarqalish ko‘rsatkichlari keltirilib, bu muammoning tibbiy va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. JSST, ESC/EAS va milliy registrlar ma’lumotlariga ko‘ra, arterial gipertenziya 2-tip diabet bilan 40–60 % hollarda birgalikda uchraydi va yurak-qon tomir asoratlari hamda o‘lim xavfini ikki martadan ko‘proq oshiradi. Birinchi bobda qandli diabetda gipertenziya patogenezining zamonaviy mexanizmlari tahlil qilingan: insulinrezistentlik, giperglikemiya bilan bog‘liq oksidativ stress, endotelial disfunktsiya, RAAS faollashuvi, simpatoadrenal tizim disbalansi, surunkali yallig‘lanish va tomir devori remodellanishi. Metabolik omillar (abdominal semirish, dislipidemiya, giperurikemiya, surunkali buyrak kasalligi) gipertenziyaning noqulay fenotipini shakllantirishdagi roli ham batafsil yoritilgan. Shuningdek, endotelial disfunktsiya va yurak miokardining diastolik disfunktsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda uzoq davom etuvchi giperglikemiyaning chap yurak bo‘limlaridagi struktur o‘zgarishlarga ta’siri ilmiy asosda bayon etilgan.

Ikkinchi bob – “Tadqiqot materiallari va usullari” tadqiqotning tashkil etilishi, dizayni va metodologiyasiga bag‘ishlangan. Tadqiqot 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda arterial gipertenziya rivojlanishi bilan bog‘liq klinik-genetik omillarni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bir markazli prospektiv kuzatuv shaklida olib borilgan. Tadqiqot Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi bazasida 149 bemor ishtirokida o‘tkazilgan, shulardan 69 nafari AG va QD2, 80 nafari esa izolyatsiyalangan gipertenziyaga ega bo‘lgan.

Bemorlar tanlovi yagona klinik mezonlar asosida, xabardor roziligi olinib, mahalliy axloqiy komissiya tomonidan ma’qullangan protokol asosida amalga oshirilgan. Barcha ishtirokchilarga kompleks klinik-laborator va instrumental tekshiruvlar o‘tkazilgan: anamnez yig‘ish, fizik tekshiruv, arterial bosimni o‘lchash, antropometriya, xavf omillarini baholash, biokimyoviy va gormonal ko‘rsatkichlar tahlili, EKG, ExoKG, sutkalik AQB monitoringi, buyrak faoliyatini tekshirish, siydik tahlili, oftalmoskopiya va tomirlar ultratovush tekshiruvi.

Genetik tadqiqotlar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Inson immunologiyasi va genomikasi instituti hujayra terapiyasi laboratoriyasida amalga oshirilgan. DNK ajratib olish klassik spirt-tuz usuli bilan bajarilgan, genotiplash esa AGTR1 (rs5186) va AGT (rs699) polimorfizmlari uchun allelga xos primerlar yordamida polimeraz zanjir reaktsiyasi (PZR) usulida olib borilgan. Natijalar 10% namunalar qayta tiplanib va Xardi–Vaynberg qonuni bo‘yicha tekshirib tasdiqlangan.

Klinik-laborator ma’lumotlar lipid va uglevod almashinuvi ko‘rsatkichlarini, HbA1c, insulin, S-peptid, C-reaktiv oqsil, sitokinlar darajalarini o‘z ichiga olgan. Exokardiografiya ASE/EACVI standartlariga muvofiq o‘tkazilib, chap qorincha miokardi massasi, chiqarish fraksiyasi va diastolik funksiyasi ko‘rsatkichlari

hisoblangan. Nishon organlar (yurak, buyrak, miya, tomirlar, ko‘rish organlari) zararlanish darajasi xalqaro mezonlar (ESH/ESC, KDIGO) asosida baholangan.

Statistik tahlil SPSS va GraphPad Prism dasturlarida amalga oshirilgan. Tavsiflovchi va taqqoslovchi statistika (t-testi, Mann–Whitney U-testi, χ^2-testi, korrelyatsion va regressiya tahlili) qo‘llanilgan. Mustaqil xavf omillarini baholash uchun ko‘p omilli modellar (logistik regressiya, kerak bo‘lganda Koksa modeli) ishlatilgan. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ deb belgilangan.

Klinik, genetik, laborator va instrumental metodlarning kompleks qo‘llanilishi 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda arterial gipertenziya rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni ishonchli baholash imkonini bergan hamda shaxsiylashtirilgan prognoz va asoratlarning oldini olish yo‘nalishlarini asoslab bergan.

Uchinchi bob – “2-tip qandli diabet va arterial gipertenziya bilan og‘rigan bemorlarning klinik-metabolik xususiyatlari” ushbu toifa bemorlarning klinik holati, metabolik ko‘rsatkichlari, yurak-qon tomir tizimi funksional va morfologik xususiyatlarini kompleks tahlil qiladi.

Jami 149 nafar bemor tekshiruvdan o‘tkazildi, shulardan 69 nafari birgalikdagi patologiyaga (AG va QD2), 80 nafari esa izolyatsiyalangan arterial gipertenziyaga ega edi. Guruhlarning jins va yosh tarkibi o‘xshash bo‘lib (erkaklar - 47,0%, ayollar - 53,0%), bu omillar orasidagi farqlar natijalarga ta’sir qilmagan. Tekshirilganlarning o‘rtacha yoshi 56,8 ± 9,4 yoshni tashkil etdi. Umumiy guruhda gipertenziya davomiyligi 10,6 ± 5,8 yil bo‘lgan bo‘lsa, birgalikdagi patologiyaga ega bemorlarda u ancha yuqori edi (11,2 ± 6,4 yil ga nisbatan 8,9 ± 5,8 yil, $p = 0,03$), bu esa kasallikning surunkali va og‘ir kechishidan dalolat beradi. 1-guruh bemorlarida 2-tip qandli diabet davomiyligi 9,4 ± 5,1 yilni tashkil etib, metabolik dekompensatsiya bosqichiga mos kelgan.

Arterial gipertenziya va qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda sistolik qon bosimi yuqoriroq bo‘ldi (158,6 ± 16,7 mm sim. ust. ga nisbatan 151,8 ± 15,9 mm sim. ust., $p = 0,02$), diastolik bosim bo‘yicha esa farq statistik ahamiyatga ega emas edi. Antropometrik tahlil aksariyat bemorlarda sezilarli semirish mavjudligini ko‘rsatdi. Umumiy tana massasi indeksi (BMI) 31,2 ± 4,5 kg/m², birgalikdagi patologiyada esa ancha yuqori edi (31,7 ± 4,9 ga nisbatan 29,1 ± 4,3 kg/m², $p = 0,01$). Semirish (BMI ≥ 30 kg/m²) AG VA QD2 guruhida 57,9% bemorlarda aniqlanib, bu izolyatsiyalangan gipertenziya bilan solishtirganda ancha yuqori ko‘rsatkich edi (42,5%; $p = 0,04$). 2-tip qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda uglevod almashinuvining sezilarli buzilishi qayd etildi: HbA1c – 8,2 ± 1,3%, och qoringa glikemiya – 8,7 ± 2,2 mmol/l, ovqatdan keyingi glikemiya – 10,5 ± 2,8 mmol/l bo‘ldi. Lipid spektrida umumiy xolesterin (6,2 ± 1,3 mmol/l), LDL (3,9 ± 1,1 mmol/l) va trigliseridlar (2,1 ± 0,8 mmol/l) miqdorining ortishi, HDL (0,9 ± 0,2 mmol/l) darajasining esa kamayishi kuzatildi. Aterogenlik koeffitsienti QD2 bilan og‘rigan bemorlarning 68,1% da 5 dan yuqori bo‘lib, bu kuchli aterogen dislipidemiya va yuqori tomir xavfini tasdiqlaydi. Xavf omillarini tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, bemorlarning 25,5% faol chekuvchilar, 18,1% sobiq chekuvchilar bo‘lgan, 80,5% esa kamharakat turmush tarzini olib borgan. Ortiqcha tana massasi yoki semirish 90,6% bemorlarda aniqlangan. Bu natijalar ikkala guruh

bemorlari orasida o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xavf omillari keng tarqalganligini ko‘rsatadi hamda kompleks profilaktik choralarni zarur qiladi.

Yurak-qon tomir tizimi asoratlari orasida eng ko‘p uchraganlari - yurak ishemik kasalligi (42,3%), surunkali yurak yetishmovchiligi (29,5%) va chap qorincha gipertrofiyasi (ChQG) - 48,3% bo‘ldi. Birgalikdagi patologiyada ChQG chastotasi ancha yuqori edi (49,3% ga nisbatan 26,3%; p = 0,01), bu miokard remodellasiyasining kuchayganligini bildiradi. Shuningdek, mikroalbuminuriya va diabetik retinopatiya hollari ham AG VA QD2 guruhida ko‘proq uchradi (27,5% va 27,5% mos ravishda), bu esa nishon organlarning kuchliroq zararlanishini ko‘rsatadi. Elektrokardiografik tahlil natijalariga ko‘ra, bemorlarning aksariyatida sinus ritmi saqlangan, ammo AG VA QD2 bilan og‘riganlarda chap qorincha gipertrofiyasi, QTc intervalining uzayishi (426 ± 22 ms ga nisbatan 418 ± 20 ms, p = 0,04) hamda ST–T segmentidagi ishemik o‘zgarishlar (31,9% ga nisbatan 17,5%, p = 0,05) ko‘proq uchragan. Bu esa miokardning elektr barqarorligining pasayganligi va aritmiyalarga moyillikni ko‘rsatadi.


Exokardiografik ma’lumotlar struktura o‘zgarishlarini tasdiqladi. AG va QD2 bemorlarida chap qorinchalararo to‘siq va orqa devor qalinligi mos ravishda 13,6 ± 1,8 mm va 12,9 ± 1,6 mm bo‘lib, izolyatsiyalangan AG bemorlarida 12,4 ± 1,5 mm va 11,7 ± 1,3 mm ga teng edi (p = 0,01). Chap qorincha miokardi massasi 228 ± 35 g bo‘lib, bu 198 ± 29 g dan yuqori (p = 0,01); massaning indeks ko‘rsatkichi esa 113 ± 20 g/m² ga nisbatan 95 ± 18 g/m² (p < 0,01). Diastolik disfunktsiya AG VA QD2 guruhida 52,2% bemorlarda, izolyatsiyalangan gipertenziyada esa 28,8% hollarda qayd etilgan (p = 0,01). Bundan tashqari, chap bo‘lmacha kengayganligi (42 ± 5 mm ga nisbatan 38 ± 4 mm, p = 0,01) va chiqarish fraksiyasining pasaygani (55,2 ± 5,4% ga nisbatan 58,6 ± 4,8%, p = 0,02) aniqlangan.

Koronaroangiografiya natijalari QD2 bemorlarda koronar tomir tizimida ancha ifodalangan aterosklerotik o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatdi: uch tomirli zararlanish 13,0% ga nisbatan 2,5% (p = 0,03), diffuz jarayon esa 21,7% ga nisbatan 6,3% (p = 0,01). Proksimal LAD va RCA segmentlari ko‘proq zararlangan (p < 0,05), bu esa gipertenziya va diabet kombinatsiyasida ateroskleroznin umumlashgan shaklini bildiradi.

Sutkalik arterial bosim monitoringi natijalariga ko‘ra, AG VA QD2 bemorlarda o‘rtacha 24 soatlik sistolik bosim 156 ± 14 mm sim. ust., diastolik bosim esa 94 ± 9 mm sim. ust. bo‘lib, bu izolyatsiyalangan gipertenziyadagi 150 ± 13 va 90 ± 8 mm sim. ust. ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqoriroq (p = 0,02 va p = 0,01). Shuningdek, “non-dipper” profili 59,4% bemorlarda aniqlangan (38,7% ga nisbatan; p = 0,01) hamda bosim yuklamasi indeksi oshgan (64% ga nisbatan 52%; p = 0,01). Bu gipertenziyaga doimiy hemodinamik yuklama va yurak-qon tomir asoratlari xavfining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Biokimyoviy tahlil birgalikdagi patologiyaga ega bemorlarda almashinuv jarayonlari va endotelial funksiyaning chuqur buzilganligini ko‘rsatdi. hs-CRP darajasi AG VA QD2 guruhida ancha yuqori (4,8 ± 2,3 mg/l ga nisbatan 3,2 ± 1,8 mg/l, p < 0,01), gomosistein esa 18,6 ± 5,4 μmol/l bo‘lib, 12,9 ± 4,2 μmol/l ga nisbatan ancha yuqori (p < 0,01). Lp(a) darajasi 35 ± 12 mg/dl bo‘lib, bu ham izolyatsiyalangan gipertenziya ko‘rsatkichlaridan yuqori (p = 0,02).Bunda

adiponektin darajasi ancha past (5,2 ± 1,6 µg/ml ga nisbatan 8,1 ± 2,0 µg/ml, p < 0,01) bo‘lib, antiaterogen himoyaning pasayganini ko‘rsatadi. Endotelin- 1 darajasi AG VA QD2 guruhida 3,8 ± 1,2 pg/ml, izolyatsiyalangan AGda esa 2,6 ± 1,0 pg/ml bo‘lgan (p < 0,01), shu bilan birga azot oksidi (NO) miqdori 18,2 ± 4,5 µmol/l gacha kamaygan, AG guruhida esa 24,5 ± 5,0 µmol/l (p < 0,01) bo‘lgan. Bu natijalar endotelial disfunktsiyaning yaqqol namoyon bo‘lganligini va tomir tonusining buzilganligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Biokimyoviy va endotelial ko‘rsatkichlarning ChQ (chap qorincha) tuzilmasi bilan korrelyatsiyasi.

